

ISSN 2010-720X

ILIM HÁM JÁMIYET



FAN VA JAMIYAT

2024 (№2/1)

жигитлер айтысы (жуўап айтысы) хэм шайырлар айтысы импровизациялық әдебий қубылыс арқалы пайда болған.

Қарақалпақ әдебиятында Жийен жыраў, Күнхожа, Әжинияз, Бердақ, Өтеш хэм соңғы дәуірлердеги Аяпберген Мұсаев, Садық шайыр, Рам шайыр, А.Дабылов, Т.Жумамуратов, И.Юсупов хэм т.б. шайырлар дәретіушилигинде көриўге болады. Бул шайырлардың поэтикалық дәретіушилигинде импровизациялық уқып болған.

Жуўмақлап айтқанымызда, дүнья фольклористикасы хэм әдебияты тарийхында импровизация қубылысының теориясы пайда болыўы, қәлиплесийи хэм раўажланыў басқышлары бойынша усы мақалада азыкем сөз еттик. Қарақалпақ фольклористика илиминде жыраў хэм баксылардың дәстан дәретіу импровизациясы, халық қосықтары, салт-дәстүр жырлары, шешенлик өнери хэм күлкили әңгимелердің дәретіуиндеги импровизация усылының әхмийети үйренилиўи зәрүр деп есаплаймыз.

Әдебиятлар

1. Алексеев М. П., Жирмунский В. М. и др. История зарубежной литературы. Средние века и Возрождение. - М.: «Высшая школа», 1987.
2. Барабаш Ю. Я. // Киреев — Конго. - М.: Большая российская энциклопедия. 2009.
3. Бұранғолов Мөхәммәтша - Сәсән аманаты: - Өфө: Башкортостан «Китап» нәшриәте. 1995.
4. Квятковский А. П. Поэтический словарь / Науч. ред. И. Роднянская. - М.: Сов. Энцикл., 1966.
5. Куранов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. -Тошкент: «Академнашр», 2010.
6. Мухаметзянова Лилия Хатиповна. Татарские книжные дастаны: история становления жанра и поэтика. Автореферат: диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Казань – 2015
- 7.Словарь Литературоведческих терминов (редакторы-состовители Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев). -Москва- «Просвещение», 1974.
8. Самарин Р.М. Поэзия скальдов. // История всемирной литературы. - Т-2. -М.: 1982.
9. Тронский И.М. История античной литературы. -Москва: «Высшая школа», 1988.
- 10.Веселовский А. Н. Историческая поэтика. - М.: «Высшая школа», 2010.

Интернет сайтлар

- 11.<https://ru.wikipedia.org/wiki>
12. <https://arzasamas.academy>
13. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/atama/556-atamalar.html>
14. <http://www.welcome.kg/ru/kyrgyzstan/culture/ccssn/>

РЕЗЮМЕ. Мақалода бадий адабиётда, поэзияда импровизация дастури адабий, бадий ва поэтик маҳорати сифатида баҳоланади. Шоир-импровизатор ижодиётда импровизаторлик техникаси ва бадий поэтик формалар ижодкорнинг поэтик дунёсида шаклланиши ҳақида сўз этилади.

РЕЗЮМЕ. Мастерство импровизации, особенно его традиции, автор изображает как одну из особых традиций поэтического творческого метода исполнения стихотворений, причем как один из приемов создания стихотворений. Поэт-импровизатор в процессе создания стихотворения использует приемы импровизации, поэтические формы, литературные приемы, выразительные средства и автор с их помощью может широко описывать поэтический мир.

SUMMARY. Author depicts improvisation skill especially its traditions as one of the special tradition of poetic creative method in performing poems, moreover as one of the technique of creating poems. Poet-improvizor in poem creating process uses techniques of improvisation, poetic forms, literary methods, expressive means and author with the help of this means can widely describe poetic world.

NOSIR FOZILOV ESSELARINING BADIY-MA'RIFIY XUSUSIYATLARI

S.Matchanov – pedagogika fanlari doktori, professor

Circhiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: millatparvar adiblar, ijodiy biografiya, tarixiy hujjatlar, ijodiy tajriba, asarning yaratilish tarixi.

Ключевые слова: писатели-националисты, творческая биография, исторические документы, творческий опыт, история создания произведения.

Key words: nationalist writers, creative biography, historical documents, creative experience, history of creation of the work.

Xotira insonni doimo o'tmish va kelajak bilan bog'lab turadi. U bosib o'tgan yo'l haqida shunchaki tarix bo'lib qolmasdan, kelajak to'g'risida chuqur o'ylarga toldirishi, aqlu shuurimizni muammoning ildizini topishga yo'naltirishi jihatdan muayyan tarbiyaviy maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Jahon adabiyotida xotiranaivislikning yuksak va xilma-xil namunalari yaratilgan bo'lsa-da, XX asr o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi millatparvar adiblar to'g'risida shu xildagi xotiralarning yo'qligi, H.Qodiriyning A.Qodiriy haqidagi asarlarini hisobga olmaganda, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimovlarning tadqiqot xarakteridagi ishlarida esa asosan tarixiy hujjatlarga tayanganligi mazkur yozuvchilarning hayotiy va ijodiy biografiyasini yaxlitlikda o'rganishga izn bermasligi tabiiy.

Shunga ko'ra, G'.Gulom, Oybek, A. Qahhor, Mirtemir, M.Shayxzoda, H.G'ulom, S.Ahmad, S.Zunnunovalardan tortib, O'.Umarbekov, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirmirzayev, T.Murodgacha bir necha avlod ijodkorlariga oid taqdirar talqinining badiiy gavdalanitirilishi "Topdim-u yo'qotmadim" kitobning tilga olishga arzugulik jihatidir. Agar undan M.Avezov, S.Muqonov, G'.Musrepov, G'.Mustafin kabi taniqli qozoq adiblari haqidagi voqeiy hikoyalarining ham o'rin olgani nazarda tutilsa, xalqlar do'stligi bilan bog'liq adabiy-ma'rifiy qimmatini yanada ortadi.

O'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarining urf-odatlarini milliy mentaliteti va og'zaki ijodi namunalariga xos ma'no nozikliklarini chuqur tushunishi, qolaversa, Oybek, G'.G'ulom, M.Avezov va S.Muqonovlar kabi ustoz adiblar e'tirofi va g'amxo'rliklaridan bahramandlik yosh yozuvchini badiiy mahoratini oshirish ustida tinmay izlanishga da'vat etadi.

Aynan taniqli so'z san'atkorlarining ijodiy tajribasi N.Fozilov uchun mahorat maktabi vazifasini o'tagan "Ustozlar davrasida", "Bir otar to'pponcha", "Munavvar lahzalar", "Eslasang diling yorishur", "Ustozlar so'zlaganda", "Toshkentning nosi", "Said Ahmad noming baland" nomli kitoblari kirgan esselari va voqeiy hikoyalaridagi badiiy ijodning g'oyatda serzahmad va o'ziga xos san'at turi ekanligi xususidagi kuzatishlarida aniq-ravshan sezilib turadi.

Har bir asarning yaratilish tarixi bilan bog'liq o'z tarjimai holi bo'lganidek, "Topdim-u yo'qotmadim" kitobining ham o'z tarixi bor. Kitob yaratilish vaqti jihatidan chegara bilmaydi. Gap shundaki, unda adibning qalbida adabiyotga, badiiy ijodga qiziqish va mehr-muhabbat uyg'ongan ilk bolalik davridan to' ustoz so'z san'atkori darajasiga yetishgan davrigacha bo'lgan ijod ahli bilan yelkama-yelka o'z boshidan kechmish-kechirmishlari ibratomuz hikoyalar tarzida qalamga olinadi. Muhimi, muallif xotiranaivisligi bir kishining ijodiy taqdiriga doir shunchaki esdaliklar bo'lmay, ijodda hamnafas, hayotda yelkadosh yozuvchilarning shaxs va qalamkash sifatidagi

badiiy olamga teran nigoh tashlagan o'ziga xos munosabatlarni talqinidir. Kitob esselar, mustaqil voqeiy hikoyalardan tashkil topgan bo'lsa-da, yaxlit asar sifatida o'qiladi. Uning bosh qahramoni adibning o'zi.

Odatda, shu tipdagi aksariyat asarlar kim haqida yozilgan bo'lsa, o'sha kishining ishdagi yutuqlari yoxud el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgungacha bosib o'tgan yo'li bayon qilinadi. N. Fozilov ulardan farqli o'laroq, avvalo, o'z qahramonlarining insoniy sifatlariga e'tibor qaratadi. Ularning har qanday odam yo' qo'yishi mumkin bo'lgan kamchiliklaridan ham ko'z yummaydi. Qahramon hayotiga tegishli u yoki bu epizodni keltirishdan oldin o'sha epizodni qalamga olishdan ko'zda tutilgan maqsadiga ishora qiladi. O'z kuzatishlarining xolisligini dalillash uchun lozim topsa, boshqalarning fikr-mulohazalariga, lozim topsa, tarixiy hujjatlarga murojaat etadi. Shu tariqa tasvir xolisligini ta'minlashga qaratadi. O'lmas Umarbekov xotirasiga bag'ishlangan "Azizim" essesinde u kishining o'ziga (boshqalarga ham) azizligiga doir epizodlardan oldin kitobxon qulog'iga asar g'oyasi xususida "shipshib" qo'yadi: "Bir toifa odamlar borki, uning nomini eshitib oq ijrg'anasan; ikkinchi bir toifa odamlar borki, uning nomini eshitish bilan diling yayrab ketadi. Do'stimiz O'lmas ana shu ikkinchi toifadagi dilbar odamlardan edi".

O' Umarbekovni yaqindan bilgan-bilmagan kishilar uning dilbarligi nimalardan iborat ekanligini bilishga qiziqishlari tabiiy.

N. Fozilov esselariga xos xususiyatlardan yana biri adibning o'z qahramonlari taqdiri bilan bog'liq kuzatishlari xolisligini turli yo'llar bilan dalillashdir. Mazkur esseda Yozuvchilar uyushmasi kengashida O' Umarbekovni "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga tavsiya qilishda kengash a'zolarining turlicha munosabatida bo'lganligi xususida so'z yuritilgan ekan, bu gap-so'zlarni boshqalar ham tasdiqlashi mumkinligini bildiradi: "Oralaringizda: "Bu odam sal oshiribroq yubordiyov!" deydi odamlar ham chiqib qolar. Yo'q, men hech ham oshirib yuborganim yo'q. agar shunaqa odamlar bor bo'lsa, o'sha majlisda mening yonimda o'tirib, taklifimni birinchi bo'lib, qo'llab-quvvatlagan Hafiz Abdusamatovdan so'rasinlar. U kishi bor gapni oqizmay-tomizmay aytib berishi mumkin. O'sha majlisda O'tkir Xoshimov ham bor edi..."

Har ikkala kishining guvohlikka chaqirilishi kitobxonda yozuvchi fikrlari yuzasidan shubha tug'dirmaydi.

N. Fozilov shu xildagi aksariyat asarlarida o'z kuzatishlarini quvnoq yumor vositasida latifanoma hangomalar tarzida ifoda etgan bo'lsa, "Topdimu yo'qotmadim" da ko'proq lirik xislat bilan yo'g'rilgan realistic uslubga mo'lik bildiradi: "Ajoyib yoz kunlarining biri edi: tevarakatdan saratonning nafasini qaytaruvchi tafti, asfaltidan qaynoq xovur ko'tariladi. Xiyobondagi daraxtlarning yaproqlari qilt etmaydi, qushlar ham in-iniga urib ketishgan. Issiqdan bo'g'riqib, nashryotning oldiga kelib qolganimda, ichkaridan Mirtemir aka chiqdi".

Shu taqlid kitobxonni Mirtemir bilan tanishtirgach, shoirning inson sifatidagi ma'naviy qiyofasiga oid kuzatishlarini xavola etadi: "Mirtemir akanikiga kirib borganimda allaqachon oqshom salqini tushib, atrof nimqorong'i tortib qolgan edi. Xovlida Mirtemir aka atirgullarga suv sepib yurar, sadarayhonning tarovatli bo'yi xovlini tutib ketgan, gullarning bargiga sepilgan suv tonggi shudringday tiniq yiltillar, xovliga allaqanday bir go'zallik baxsh etar edi. Mirtemir aka meni ko'rishi bilan qo'lidagi rezina shlangni shundoqqina atirgullar jo'yagiga to'g'irlab qo'ydi-da, peshvoz chiqdi".

Shoir xovlisida atirgullarning ochilib turishi, sadarayhonning tarovatli bo'yi, gul barglariga sachragan suvlarning tongi shudringday tovlanishi to'g'risidagi tasvir tiniqligi gullarga suv sepib yurgan shoir timsoli bilan uyg'unlashib kitobxon qalbida iliq tuyg'ular uyg'otadi.

"Yaxshilarga yondashib" essesindegi bunday manzaraholatlarni yozuvchi ijodiga xos umumiy xususiyat bo'lib,

kitobxon ishonchiga kirishning samarali yo'llaridandir.

Garchi kitob ibtidosida muallif u yoki bu yozuvchining badiiy olamiga adabiyotshunos bo'lib emas, oddiy bir yozuvchi nigohi ila yondashganligi qayd qilingan bo'lsa-da, o'rni-o'rni bilan adibning o'z qahramonlari ijodiga birdek hurmat nuqtai nazaridan yondashganligiga guvoh bo'lasiz. Jumladan, "Ukadek aziz, dostdek qadrdon edi" nomli essesinde Tog'ay Murodning badiiy mahorati to'g'risida so'z yuritilgan qayd qilingan yozadi: "Yozuvchini bamisoli shamchiroqqa o'xshatish mumkin. Shamchiroqqa vaqti-vaqti bilan yog' quyib turmasangiz, piligi kuyib tamom bo'ladi-qoladi. Yozuvchi ham hayotni kuzatmas ekan, o'z ustida ishlamas ekan, mashq qilmas ekan, hali aytganimiz chiroq kabi "pis" etib o'chadi-qoladi... Unda (Tog'ay Murodda. - S.M.) istiqbolimiz tufayli qandaydir katta bir jur'at, shu katta jur'at tufayli erkin fikrlash paydo bo'ldi. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi oddiy mehnatkash aholining dardu alamini, jabru jafolarini tap tortmay yozishga jur'at qildi. Sho'ro tuzumi mehnatkash xalqni ayovsiz ezib yuborganini dadil va rostgo'ylik bilan yozdi".

Ayni hikoyada Said Ahmadning "Jimjitlik" romanini yozish jarayonida Tog'ay Muroddan otlarning o'ziga xos tabiati xususida maslahat olishi bilan bog'liq voqealar tavsiloti kitobxonni yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq olib kirishga xizmat qiladi. Xuddi, shuningdek, "Mulla Shukur" essesinde shukur Xolmirzayevning ilk ijodi to'g'risida so'z yuritilgan, o'tgan asrning 50-60 yillarida bolalar nasrida yo'l qo'yilgan kamchiliklar xususida tegishli xulosalarini bayon etadi.

Adib "Buyuk Muxtor Avezov" nomli essesinde badiiy adabiyotga sho'rolar davri mafkurasi tazyiqi xususida so'z yuritib, Oybek bilan Muxtor Avezov, G'abit Musrepov bilan G'abiden Mustafin, G'afur G'ulom bilan Qosim Omonjo'lovlariga o'xshash iste'dod egalari erkin ijod qilishi oson kechmaganini qayd etadi. Ayniqsa, M. Avezovning "Olatasir zamon" nomli qissasining Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Sarob" romani bilan taqdiridoshligi to'g'risidagi qayd qilinganlar har qanday kitobxonni befarq qoldirmaydi.

"Ba'zan noshud munaqqid, - deb yozadi adib, - bir asarni chala-chulpa, tushinib - tushunmay o'qib, bir yoqlama, xom- xatala fikr aytib qo'yadi-da, bu gap o'sha asarning keyingi taqdiriga yomon ta'sir ko'rsatadi. Ustoz Abdulla Qahhorning "Sarob" romani shu ahvolga tushib, buning asorati ayni yozgi shamollashday uzoqqa cho'zilib, ya'ni o'n sakkiz yil deganda zo'rg'a nashr qilingani ham-maga ma'lum. "Olatasir zamon" qissasi ham shu jihatdan "Sarob" romani bilan taqdiridosh".

Ma'lum bo'lishicha, "Olatasir zamon" 1927- yilda Qizil O'rda shahrida kitob holda nashr qilingach, noshud munaqqidlarining no'rin tanqidiga uchraydi. Natijada oradan 45 yil o'tib, oldin rus tilida, keyinchalik qozoq tilida bosilib chiqadi.

"Topdimu yo'qotmadim" kitobiga kirgan esselar, voqeiy hikoyalardagi asar qahramonlarining o'ziga xos tabiatiga doir kuzatishlar yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga yo'l ochishi bilan yuksak e'tibor va e'tirofqa sazavordir.

"Men u kishining (M. Avezovning) vazminligi-yu mutafakkirligini, - deb yozadi adib, - Abish Kekelboyevda, prozadagi keng qamrovligi-yu kuydi-pishdiligi, dadilligini Abdujamil og'a bilan Sherxon Murtazo og'lida, dramaturgiyadagi salohiyatini Qoltoy Muhammadjonov bilan Dulat Isabekovda, adabiyotshunoslik ilmidagi zukkoligi-yu bilimdonligini Zeynulla og'a Qabulov bilan Rahmonqul Berdiyevlarda ko'raman".

Bu mulohazalar shunchaki qaydnoma bo'lmasdan, qardosh qozoq adabiyotining yetakchi xususiyatlarini chuqur idrok etishga yordam beradi.

Shu o'rinda aytish joizki, essechilikni o'zbek adabiyotida butkul yangi janr deb bo'lmaydi. Uning ilk namunalari mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Taskiratish

shuaro”, Boburning “Boburnoma”, Munis va Ogahiy asarlarida, keyinchalik H.Qodiriyning “Otam haqida” nomli kitoblari uch koʻrsatgan edi.

Ustozlar davrasida kamol topgan N.Fozilovning shu janrga qoʻl urib uning yuksak namunalari yaratganligi tahsinga sazavordir.

Asarlariga xalqlar doʻstligi gʻoyasini chuqur singdirgan adib qaysi millat vakili timsolini yaratmasin, oʻsha qahramon mansub millat tili, urf-odatlar, turmush tarzini bir daqiqa boʻlsin hayolidan qochirmaydi. Binobarin, adib yaratgan qahramon nutqi va feʼl-atvorida millati ruhiyati butun nozikligi bilan oʻz ifodasini topadi. Natijada uning xarakter takomili kitobxonda ishonch uygʻotadi.

Adib ijodining yutugʻini taʼminlagan omillardan yana bir soʻz va iboraga qahhorona hassoslik bilan yondashishdir. Uning qissa va hikoyalari oʻqigan ziyar kitobxonning oʻsha davr bolalar adabiyotidagi quruq pand-nasihattan iborat “xavfli virus” dan xoliligini payqashi qiyin emas.

Kezi kelganda, “Topdimu yoʻqotmadim” dagi barcha asarlarni xotirnavislikning mumtoz namunalar tarzida baholashdan yiroqmiz. Kitobdagi “Azizim”, “Saida opamiz” kabi baʼzi esselarida asar qahramonlari bilan bogʻliq tafsilotlarga kengroq oʻrin berilgan boʻlsa, “Shoirning bax-

ti”, “Saboq” esselarida asar qahramonlari oʻrniga koʻproq muallifning oʻz kechinmalariga toʻxtalishi ortiqchadek tuyuladi. Bu esatibiyki, oʻquvchini zeriktiradi.

Shunga qaramay, taniqli bolalar yozuvchisi, xalqlar doʻstligining tolmas kuychisi Nosir Fozilovning hassos adib va sinchkov tarjimon sifatidagi koʻp yillik kuzatishlari asosida yaratilgan va Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan “Topdimu yoʻqotmadim” xotira va voqeyi hikoyalar kitobi oʻzining badiiy, maʼrifiy, tarbiyaviy ahamiyatiga koʻra istiqlol davri adabiyotining yuksak namunalar qatoridan joy olishi shubhasiz.

“Shum bolaning nabiralari” qissasi uchun Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining Gʻofur Gʻulom nomidagi mukofoti (1985), tarjimalari uchun Qozogʻiston Yozuvchilar uyushmasining Beyimbet Maylin mukofoti (1986), “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi” unvoni (1989), “Ustozlar davrasida” kitobi uchun Hamza nomidagi Oʻzbekiston davlat mukofoti (1990), Qozogʻiston Yozuvchilar uyushmasining “Olosh” nomli xalqaro mukofoti (2000), “El-yurt hurmati” ordeni (1999), “Topdim-u yoʻqotmadim” kitobi uchun Oʻzbekiston Respublikasi davlat mukofoti (2011) bilan taqdirlanishi yozuvchining kamtarin ijodiga berilgan munosib bahodir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. “Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. Oʻz AS, 2017 yil 4 avgust.
2. Adashboev T., D.Rajab. Sattrlardan taralgan mexr. –T.: “Turon zamin ziyo”. 2017.
3. Barakaev P. JonaJonim, sheʼriyat. –T.: “Chʻlpon”, 1997.
4. Barakaev P., Ochilov E. Badiiy tasvir mahorati. –T.: “Muharrir”, 2019.
5. Jamilova B. Oʻzbek bolalar adabiyoti. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Noshir”, 2019.
6. Ibrohimova Z. Kichkinoylar adabiyotining xususiyatlari. –T.: “Ukituvchi”, 1994.
7. Irixojjaeva S. Bolalar adabiyotida didaktika. –T.: “Fan”, 1978.
8. Milliy istiqbol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Oʻzbekiston”, 2000.
9. Musurmonova O. Maʼnaviy kadrlar va ʼshlar tarbiyasi. – T.: “Ukituvchi”. 1996.
10. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro: “Durdona”, 2019.
11. Shermatova U. Tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatan timsoli. –T.: «Nodirabegim». 2021.
12. Oʻzbek bolalar adabiyoti antologiyasi. 2 jildlik. 1-2- jildlar. –T.: “Oʻqituvchi”, 2017.
13. Oʻzbek bolalar adabiyoti. –T.: “Esh gvardiya”, 1976.
14. Kuzi Ismoil. Shʻx akalor, shumtakalar. –T.: “Tafakkur kanoti”, 2016.

REZYUME. Ushbu maqolada bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov esselari badiiy-maʼrifiy jihatdan tahlilga tortilgan. Maqolada Nosir Fozilov hayoti bilan bogʻliq maʼlumotlarning keltirilishi kitobxonni adib asarlarini badiiy anglashiga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются сочинения детского писателя Насира Фазилова. Информация о жизни Насира Фазилова в статье помогает читателю понять творчество писателя.

SUMMARY. In this article, the essays of the children's writer Nasir Fazilov are analyzed. Information about the life of Nasir Fazilov in the article helps the reader to understand the works of the writer.

SHEʼRIYATDA DIALOG VA UNING BADIY FUNKSIYASI

S.Matyakupov – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: dialog tarixi, adabiyot nazariyasi, oʻrganilish tarixi, badiiy funktsiya, kommunikatsiya, ifoda uslubi.

Ключевые слова: история диалога, теория литературы, история обучения, художественная функция, общение, стиль выражения.

Key words: history of dialogue, literary theory, history of learning, artistic function, communication, style of expression.

Badiiy dialog mustaqil hayotiy hodisa sifatida shakllangan, qadim davrlarda fan va falsafaning oʻziga xos talqinlash vositasi boʻlib xizmat qilganiga qaramasdan, badiiy tafakkur elementlaridan xoli boʻlmagan. Badiiy tafakkur sarhadiga oʻtgandan keyin esa tabiiy ravishda badiiy nutqning ichki tarkibida oʻz vazifasini bajara boshlagan. Badiiy-uslubiy vazifa bajarishi bilan birgalikda badiiy asarning ichki tashkillanish jarayonlariga kuchli taʼsir etgan. Fikr kontrasti, badiiy gʻoyalar, estetik ideallarning jonli tarzda shakllanishi, asar kompozitsiyasida tezis-antitezis-sintez tizimining maydonga kelishida muhim rol oʻynaydigan yetakchi komponentga aylangan. Bir soʻz bilan aytganda, badiiy nutqning yetakchi komponenti boʻlib qolgan.

Badiiy nutq haqida qisqa, loʻnda, umumlashtiruvchi tavsifni esa biz birinchi navbatda adabiyotshunoslik lugʻatlaridan topamiz. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlar tomonidan yozilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻatida” uslub, dialog, nutq maromi, personaj nutqi kabi tushunchalar izohlangani

holda, badiiy nutq, sheʼriy nutqqa bagʻishlangan izoh uchramaydi. Mustaqillik davrida yozilgan milliy “Adabiyotshunoslik lugʻati”da badiiy nutq, uning tuzilishi, tarkibiy qismlari, komponentlari masalasiga maxsus toʻxtalinmagan. Ammo “dialog”, “nutqiy xarakteristika” kabi maqolalarda badiiy nutqning ayrim belgilari qayd etib ketilgan. Jumladan, sheʼriy nutq haqida “Lugʻat”da shunday maʼlumotlar keladi: “**Sheʼriy nutq** – poetik nutq, nazm; muayyan bir oʻlchov (vazn) asosidagi ritmga ega, oʻzining musiqiy jarangi, emotsional-hissiy toʻyinirilganligi bilan farqlanuvchi nutq shakli. Sheʼriy nutqdagi oʻziga xos intonatsiya, musiqiylik ritmik boʻlaklar va ritmik vositalar, oʻziga xos fonetik va sintaktik tashkillanish orqali vujudga keladi. Sheʼriy yoʻlda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning oʻquvchiga “yuqtirilishi”da uning ritmik-intonatsion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi. Yaʼni sheʼrning ritmik-intonatsion xususiyatlari uning mazmuni bilan belgilanadi, mazmun bilan uygʻunlik kasb etadi. Oʻzining kelib chiqishi jihatidan sheʼriy nutq badiiy nutqning nasriy shaklidan

Ктайбеков А.М. Законодательная база рыночных реформ в Республике Каракалпакстан	56
Саидов Б.А. Исти судқа шекем алып барыўда шахстың ҳуқық ҳәм еркинликлерин тәмийинлеў мәселелери	57
Сарыбаев А.К. Қарақалпакстан Республикасында индустриаллық жаңаланыў процесслери тарийхынан (1991-2000-жыллар)	60
Шерниязов Р.Х. Қуйи Амударё соҳилидағи XVI-XIX асрларда юз берган этносиёсий ва этномаданий жараёнлар тарихномаси	62

TIL BILIMI HÁM ÁDEBIYATTANÍW

Til bilimi

Abishov G.M., Sársenbaeva B.S. Qaraqalpaq xalıq jumbaqlarındaǵı ayırım úy buyımı atamaları haqqında	64
Aitenova Z.A. Qaraqalpaq tilinde leksikologiyanı oqıtıw texnologiyaları	65
Babaeva M.A., Chariev Ch.D. Qaraqalpog‘istonli turkmanlar tiliga Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar	67
Bayimbetova M.B. Inglis hám qaraqalpaq tillerinde eliklewishlerdiń salıstırmalı úyreniliwi	69
Elmuratova S.A. Exploring objectivity in modern russian language: a focus on word formation and grammatical meanings	72
Жалғасов Н.М. Антропоцентрические провербиальные образования с оценкой трудовой деятельности и социального статуса человека	74
Халмуратов Т.Ж. Ҳэзирги рус ҳәм қарақалпақ тиллеринде биргелкили қурамлы дәнекерсиз қоспа гәплердиң гейпара теориялық мәселелери	76
Искендерова Е.К. Қарақалпақ ертеклериндеги зоонимлер	78
Нуржанов О.Д. Қарақалпақ математикалық терминологиясының қәлиплесиўи ҳәм раўажланыўи ҳаққында	81
Оразымбетов А.Қ. Қарақалпақ тилиндеги аффикс морфемалардың түрлери	83
Пирниязова А.К., Каллибекова Г.П. Күнделикли баспасөз тилинде шахсты аңлатыўшы перифразалардың қолланылыўы	85

Ádebiyattanıw

Allanazarov E. A.Dabılovtıń «Bahadır» dástanında folklorlıq motivler	88
Amirqulova Z.M. Hikoyalarda tarixiy haqiqatning aks etishi	90
Бекбергенова М.Д. Вопросы изучения каракалпакской литературы в исследованиях Пердебая Нуржанова	92
Ктайбекова З.К. А.Әбдиевтиң «Қарақалпақ қосығы ямаса нан жеңиз!» гүрриңиндеги көркемлик изленислер	93
Матимов Қ.Г. Көркем әдебияттағы импровизация қубылысы: изертлениўи тарийхы менен теориясының айырым мәселелери	96
Matchanov S. Nosir Fozilov esselarining badiiy-ma’rifiy xususiyatlari	99
Matyakupov S. She’riyatda dialog va uning badiiy funksiyasi	101
Рахманова М.У., Воронцова Н.В. Биографический хронотоп в новелле Юрия Нагибина «От письма до письма»	104
Sapayeva F.D. Asl nusxa va tarjima o‘rtasidagi tafovutlar	106
Turg‘unov Sh.D. O‘zbek xalq o‘lanlarida qo‘llanilgan troplar tabiati	107
Zaripboyeva U. Nurmuhammad Andalub – Xorazmlik mashhur adib	109